



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



Yoshlar muammolarini
o'rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash
instituti

GLOBALASHUV VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR



XALQARO
ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA

2026-YIL
5-6-IYUN

“GLOBALLASHUV VA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA YOSHLAR: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA

AXBOROT XATI

(2026-yil 5–6-iyun)

KONFERENSIYA HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etilmoqda.

Konferensiya o‘tkazilish joyi va vaqti: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi (Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan)

Sana: 2026-yil 5-6-iyun.

Vaqt: 10:00-16:00

Konferensiyaga maqolalar qabulining so‘nggi kuni: 2026-yil 20-may.

Konferensiya tili: o‘zbek, rus, ingliz.

Konferensiyaning maqsadi: Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy tahlil qilish, yoshlar siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish hamda xalqaro tajriba almashishdan iborat.

Bugungi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Bu jarayonlar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar bilan birga turli ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli yoshlarning siyosiy faolligi, iqtisodiy integratsiyasi va ijtimoiy-psixologik rivojlanishini kompleks o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Konferensiya mazkur masalalar yuzasidan milliy va xalqaro ekspertlar, olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchilar o‘rtasida ilmiy muloqot maydonini yaratishni maqsad qiladi.

KONFERENSIYANING ILMIY YO‘NALISHLARI

1. Globallashuv sharoitida yoshlar siyosati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish.
2. Yoshlarning siyosiy ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini muhokama qilish.
3. Yoshlar bandligi, startaplar va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning samarali modellarini o‘rganish.
4. Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuvi va psixologik rivojlanishi masalalarini tahlil qilish.
5. Xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish hamda yoshlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash.

RO‘YXATDAN O‘TISH VA KONFERENSIYA MATERIALLARINI TAQDIM ETISH.

Konferensiyaga olimlar, soha mutaxassisleri, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari, ta’lim tashkiloti rahbar kadrlari va pedagoglari, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar, iqtidorli talabalar va barcha qiziquvchilar ishtirok etish uchun taklif etiladi!

Ishtirok etish uchun maqolalar **2026-yil 20-mayga** qadar **+998 90 890-92-41** telefon raqami yoki **@yoshlar_network** telegram profili orqali qabul qilinadi.

Xorijlik mualliflar maqolalari **kyoshlar@mail.ru** elektron pochta manzili orqali qabul qilinadi.

Konferensiyada qatnashish **bepul**.

KONFERENSIYA MATERIALLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Maqola va tezisda muallifning tadqiq qilinayotgan muammoga o‘z qarashlari to‘liq aks etishi, aniq ilmiy xulosalari, amaliy taklif va tavsiyalari keltirilishi zarur. Materiallar o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Matn formati: MS Word, Times New Roman, 14 kegel, 1,5 interval.

Sahifa chegarasi: Yuqori va pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm.

Hajmi: 3–5 bet.

Mualliflar soni 3 nafardan oshmasligi lozim. Har bir muallif mualliflik hissasi 1 (bir) koeffitsiyentgacha tezis yoki maqolalar taqdim etishi mumkin.

Maqolaning tepa qismida qator o'rtasida bosh harflar bilan mavzu, satr qoldirib o'ng burchagida muallif haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur: familiyasi, ismi, ishlash joyi, ilmiy darajasi va unvoni, talabalar uchun ta'lim olayotgan joyi, yo'nalishi va mutaxassislik nomi, elektron pochta manzili. Satr qoldirib, annotatsiya, kalit so'zlar, asosiy matn va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yozilishi talab etiladi.

Havolalar (snoska) sahifa so'ngida beriladi. Tezis hajmi 3-5 bet bo'lishi hamda qaysi yo'nalishga tegishliligi maqolaning nomlanishida keltirilishi kerak (*masalan: 1-Sh.Axmedov*).

Ushbu talablarga javob bermaydigan ilmiy maqola va tezislar qabul qilinmaydi. Matnda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun javobgarlik muallif zimmasida bo'ladi. Tashkiliy qo'mita qabul qilinmagan tezislarni mualliflarga qaytarish va izoh berish majburiyatini olmaydi.

Taqdim etilgan tezislar mazmuni belgilangan talablarga mos kelgan taqdirda konferensiya to'plamiga kiritiladi va Yoshlar muammolarini o'rganish instituti hamda hamkor tashkilotlar rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinadi

TASHKILIY QO'MITA MANZILI

Tashkilotlar: Yoshlar ishlari agentligi; Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash Instituti

Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45.

Telefon: +998 90 890-92-41